


JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni-birlikda

2023-yil yanvar-may holatiga




- To'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Boshqarmaning elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlar
- Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar

Viloyat statistika boshqarmasiga 2023-yilning yanvar-may holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **34 ta** (o'tgan yilning shu davrida **31 ta**) murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **23 tasi** to'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, **9 tasi** boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar, **2 tasi** boshqarmaning elektron orqali kelib tushgan murojaatlar hisoblanadi.

Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

Ulushi-foizda




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 7 tasi (jamiga nisbatan 20,6 foiz) Korxon va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan, 3 tasi (8,8 foiz) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan, 1 tasi (2,9 foiz) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish yuzasidan, 1 tasi (2,9 foiz) topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan, 22 tasi (64,7 foiz) boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

- Korxon va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish
- Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish
- Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- Topshirilgan hisobotidan ma'lumotlarni olish
- Boshqa murojaatlar

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga asosiy qismi Namangan shahridan **16** ta (o'tgan yilning shu davrida **17** ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Mingbuloq tumanidan **2** ta, Kosonsoy tumanidan **2** ta, Norin tumanidan **3** ta, Pop tumanidan **2** ta, To'raqo'rg'on tumanidan **1** ta, Uychi tumanidan **3** ta, Davlatobod tumanidan **4** ta, murojaatlar kelib tushgan.


Murojaatlarni ko'rib chiqish holati

Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning **25** tasiga chora ko'rildi, **9** tasi tushuntirildi, ko'rib chiqish jarayonida hamda rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

Murojaatlar turlari bo'yicha




Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **38,2** foizi (**13 ta**) jismoniy shaxslar va **61,8** foizi (**21 ta**) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xoxlaysizmi, quyidagi,

- 
- **Ishonch telefonlari**
 - (0369)227-85-06

- 
- **Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish**
 - (0369)227-85-08

- 
- Pochta manzili – namstat@umail.uz elektron manziliga murojaat etishingiz mumkin.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi

Nashr uchun mas`ul:

E. Mamatqosimov
(0369) 227-85-06